



## IJTIMOY XIZMATLAR TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA TAVSIFIGA OID NAZARIY QARASHLAR

**Shanazarov Farrux**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0003-4377-2086

[f.shanazarovv@gmail.com](mailto:f.shanazarovv@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada ijtimoiy xizmatlar tushunchasining mohiyati va iqtisodiy kategoriya sifatidagi o'рни turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Institutsional nazariya, jamoat va merit tovarlari nazariyasi, farovonlik davlati konsepsiyasi hamda inson kapitali nazariyasi doirasida ijtimoiy xizmatlarga berilgan ilmiy ta'riflar tizimlashtirilgan. Ijtimoiy xizmatlarning ijtimoiy adolat, ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirishdagi roli asoslab berilgan. Xorijiy va milliy olimlar yondashuvlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ijtimoiy xizmatlarga berilgan ta'riflar tahlil qilingan. Mualliflik yondashuvi asosida ijtimoiy xizmatlar o'tish iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi investitsion va institutsional mexanizm sifatida talqin qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy xizmatlar tizimi, ijtimoiy himoya, inson kapitali, jamoat tovarlari, merit tovarlari, farovonlik davlati, ijtimoiy siyosat, institutsional yondashuv, o'tish iqtisodiyoti, ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, davlat kafolati.

## ТЕОРИТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СУЩНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКИМ СОДЕРЖАНИЕМ СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ

**Шаназаров Фаррух**

Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** В статье рассматривается сущность социальных услуг и их значение как экономической категории на основе различных теоретических подходов. Систематизированы научные трактовки социальных услуг в рамках институциональной теории, теории общественных и мериторных благ, концепции государства всеобщего благосостояния и теории человеческого капитала. Обоснована роль социальных услуг в обеспечении социальной справедливости, социальной стабильности и повышении эффективности использования человеческого капитала. Проанализированы подходы зарубежных и национальных ученых, а также определения социальных услуг, закрепленные в законодательстве Республики Узбекистан. Предложена авторская интерпретация социальных услуг как инвестиционного и институционального механизма, оказывающего влияние на экономический рост и устойчивое развитие в условиях переходной экономики.

**Ключевые слова:** социальные услуги, система социальных услуг, социальная защита, человеческий капитал, общественные блага, государство всеобщего благосостояния, социальная политика, институциональный подход, переходная экономика, социальная стабильность, экономический рост, государственные гарантии.

## THEORETICAL APPROACHES TO THE ESSENCE AND ECONOMIC CONTENT OF SOCIAL SERVICES

**Shanazarov Farrukh**

*Samarkand Institute of Economics and Service*

**Abstract.** *The article examines the essence of social services and their role as an economic category based on various theoretical approaches. Scientific interpretations of social services are systematized within the frameworks of institutional theory, public and merit goods theory, welfare state concepts, and human capital theory. The role of social services in ensuring social justice, social stability, and improving the efficiency of human capital utilization is substantiated. The approaches of foreign and national scholars, as well as definitions of social services in the legislation of the Republic of Uzbekistan, are analyzed. An authorial interpretation of social services as an investment-oriented and institutional mechanism influencing economic growth and sustainable development in a transition economy is proposed.*

**Keywords:** *social services, social services system, social protection, human capital, public goods, merit goods, welfare state, social policy, institutional approach, transition economy, social stability, economic growth, state guarantees.*

### **Kirish.**

Aralash iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy xizmatlar tizimi aholining ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat shuningdek inson kapitali rivoji bilan bog'liq boshqa sohalarda shakllanayotgan va tobora oshib borayotgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan muhim ijtimoiy iqtisodiy kategoriya sifatida nomoyon bo'lmoqda. Insonning turmush darajasi va hayoti sifati ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichlarining o'sishi ijtimoiy xizmatlarning nafaqat hajmi balki ularning mazmuni institutsional shakli va sifat parametrlariga bo'lgan talablarni ham jiddiy ko'chaytirmoqda. Hozirgi raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida ijtimoiy xizmatlar tizimi jamiyat barqaror rivojlanishining strategik omiliga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish va moliyalashtirish davlat budjeti xarajatlarining o'sishiga olib kelmoqda, bunday holat davlat moliyaviy resurslaridan samarali, maqsadli va natijador foydalanish masalasini ilmiy asosda hal etishni taqozo etmoqda. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy mohiyati, ijtimoiy funksiyalari va bozor mexanizmlari bilan o'zaro uyg'unligini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu holat esa ijtimoiy xizmatlar tushunchasining nazariy-metodologik asoslarini chuqur tadqiq etish, uning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional mazmunini qayta talqin qilishni, ijtimoiy xizmatlarning tovar va noishlab chiqarish xizmatlaridan farqli jihatlarini aniqlash, ularning jamoat ne'matlari bilan bog'liq xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-sonli farmoni (2022), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 oktabr 2023 yildagi "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-319 sonli qarori (2023), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27 fevral 2025 yildagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-78 sonli qarori (2025), 2025 yil 12 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida mazkur mavzu dolzarblik kasb etadi.

### Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy manbalarda xizmat ko'rsatish tizimi doirasida ijtimoiy xizmatlarning mohiyati va mazmuni, ijtimoiy xizmatlar sohasining rivojlanish qonuniyatlari, aholiga taqdim etilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifati va ularning raqobatbardoshligini oshirish masalalari, shu bilan birgalikda ijtimoiy xizmatlar sohasining tarkibiy tuzilishi, xizmat ko'rsatish jarayonlarini tashkil etish hamda iste'molchilarning turli ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq ayrim jihatlar ilmiy va uslubiy jihatdan tadqiq etilgan. Jumladan, ijtimoiy xizmatlar va ularning iqtisodiy tabiati masalalari Adam Smit (2016), Kempbell Makkonnell (2017), Djon Meynard Keyns o'zlarining ilmiy asarlarida atroflicha o'rganganlar.

Taniqli iqtisodchi olim Djon Meynard Keyns "The General Theory of Employment, Interest and Money" (2010) (Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi) asarida xizmat ko'rsatish iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiy o'sish jarayonlarida xizmatlar sohasining o'rni, ijtimoiy xizmatlar tizimida raqobatbardoshlikni ta'minlash masalalari, shuningdek, ishlab chiqarish omillaridan xizmat ko'rsatish jarayonida samarali foydalanish orqali ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik hamda mehnat unumdorligini oshirish bilan bog'liq masalalar fundamental ilmiy tahlil qilingan. Adam Smit «An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations» («Xalqlar boyligining tabiati va sabablari haqida tadqiqot», 1776) asarida mehnat qobiliyati va bilimni inson kapitalining asosiy iqtisodiy manbai sifatida asoslab bergan bo'lsa, Kempbell R. Makkonnell «Economics: Principles, Problems, and Policies» («Iqtisodiyot: tamoyillar, muammolar va siyosat», 2012) asarida ijtimoiy xizmatlarni jamoat va *merit* tovarlar sifatida talqin qilib, ularning bozor mexanizmlari doirasidagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan izohlagan. Ushbu nazariy yondashuvlar keyinchalik inson kapitali konsepsiyasining rivojlanishida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan. Xususan, Gary S. Becker «Human Capital» («Inson kapitali», 1964) asarida ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan ijtimoiy xizmatlarni iqtisodiy o'sish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiluvchi investitsiya shakli sifatida ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, Amartya Sen «Development as Freedom» («Rivojlanish erkinlik sifatida», 1999) asarida ijtimoiy xizmatlarni inson imkoniyatlarini (capabilities) kengaytirishga qaratilgan institutsional mexanizm sifatida talqin qilib, ularning ijtimoiy farovonlik va barqaror rivojlanishdagi hal qiluvchi ahamiyatini asoslab bergan

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar bazasidan maqsadli ravishda tanlab olingan ilmiy ishlar asosida adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, taqqoslama taxlil qilish, institutsional yondashuv usullaridan foydalanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yuqoridagi nazariy tahlillar ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini ochib bersada, ularni amaliy jihatdan tashkil etish, boshqarish va standartlashtirish masalalari institutsional yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar ijtimoiy xizmatlarni davlat siyosati doirasida tizimli tashkil etish mexanizmlarini ochib berishga qaratilgan.

Jumladan, rossiyalik iqtisodchi olim Putilo. (2012). "Социальные услуги в системе социальной политики государства: институциональные и правовые основы" deb nomlangan ilmiy asarida ijtimoiy xizmatlarning institutsional xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, ularni davlat ijtimoiy siyosati va maqsadli dasturlar doirasida amalga oshiriladigan, manzilli xarakterga ega, aniq miqdoriy va sifat standartlari asosida ko'rsatiladigan xizmatlar tizimi sifatida tavsiflaydi. Muallif ta'kidlashicha, ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishda davlat budjeti va maxsus maqsadli jamg'armalar yetakchi o'rin tutadi, bu esa mazkur sohada bozor mexanizmlarining cheklanganligini anglatadi.

Putiloning mazkur yondashuvi ijtimoiy xizmatlarni faqat inson ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida emas, balki ularni institutsional tartibga solish, standartlashtirish va samaradorligini oshirish mumkin bo'lgan davlat boshqaruvi ob'ekti sifatida qarash imkonini beradi. Bu esa ijtimoiy xizmatlar tizimini isloh qilish jarayonida aniq me'yorlar, reglamentlar va nazorat mexanizmlarini joriy etishning ilmiy asoslarini shakllantiradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirish, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, mahalliy iqtisodchi olim Xalikov (2022) ijtimoiy xizmatlar nazariyasi va amaliyotiga tayangan holda, ushbu xizmatlarni iqtisodiy tizimda aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, davlat, xususiy va nodavlat sektorlar tomonidan pullik va bepul shakllarda taqdim etiladigan xizmat faoliyati turi sifatida ta'riflaydi. Muallif fikricha, bunday yondashuv ijtimoiy xizmatlarni xizmat ko'rsatish sohasidagi alohida va murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotlarda ijtimoiy xizmatlar sohasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va uning tarkibiy elementlari, ijtimoiy xizmatlarning resurs bazasi, xizmatlar bozorida samaradorlik ko'rsatkichlari, sohani rivojlantirish konsepsiyasi, ijtimoiy xizmatlar turlarining tasnifi hamda O'zbekiston sharoitida ijtimoiy xizmatlar tizimini tashkil etish va boshqarish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Milliy iqtisodiy adabiyotlarda ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy sohaning mohiyatini yoritishga qaratilgan qator fundamental tadqiqotlar mavjud. Jumladan, akademik Abdurahmonov (2020)ning "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" darsligida ijtimoiy soha tarmoqlari bevosita inson, uning moddiy, jismoniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan tizim sifatida tavsiflanadi. Muallif ijtimoiy sohada inson kapitalini rivojlantirish, inson bilimi, malakasi va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratib, ijtimoiy xizmat ko'rsatish tushunchasining mohiyati va mazmuni, ijtimoiy xizmatlar sohasining rivojlanish qonuniyatlari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq masalalarni ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Shuningdek, Xashimov (2002) ("Экономика социальной сферы 2002) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning zamonaviy tarmoqlarini shakllantirish, ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirish mexanizmlari, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini yuksaltirish bilan bog'liq muammolar kompleks ravishda tahlil qilingan. Muallif ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy omillarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Yuqorida keltirilgan xorijiy, MDH va milliy olimlar qarashlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatlar mohiyati, ularning ijtimoiy ahamiyati va institutsional jihatlari alohida yo'nalishlarda yetarlicha o'rganilgan. Biroq mazkur tadqiqotlarda ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni, inson kapitaliga investitsiya sifatidagi roli hamda mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishga ta'sirini kompleks tarzda ochib beruvchi yagona iqtisodiy-institutsional yondashuv hanuz to'liq shakllanmagan.

Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida ijtimoiy xizmatlarni faqat ijtimoiy himoya yoki davlat xarajatlari doirasida emas, balki xizmat ko'rsatish sohasidagi strategik sektor, inson kapitali sifatini oshirish va ijtimoiy barqarorlik orqali iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida ilmiy asoslash zarurati saqlanib qolmoqda. Shu bois, ijtimoiy xizmatlar tushunchasini kengaytirilgan iqtisodiy-institutsional yondashuv asosida qayta talqin qilish mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy xizmatlar tizimi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham keng qamrovda o'rganilgan. Xususan, World Bank iqtisodchilari ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy himoya tizimini "risk management framework" doirasida tahlil qilib, o'tish iqtisodiyoti sharoitida davlatning ushbu sohadagi roli saqlanib qolishi zarurligini, biroq moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish muhimligini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuvga ko'ra, ijtimoiy xizmatlar bozor mexanizmlari orqali to'liq tartibga solinmaydigan, davlat ishtirokini talab etuvchi xizmatlar majmuasini ifodalaydi va ular mohiyatan ijtimoiy himoya tizimi bilan uzviy bog'liqdir.

Shuningdek, World Health Organization tomonidan tayyorlangan “Health Systems: Improving Performance” (2000) hisobotida, ayniqsa sog‘liqni saqlash sohasidagi ijtimoiy xizmatlarning uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan: aholi salomatligini yaxshilash, xizmat iste‘molchilarining kutilmalariga moslikni ta‘minlash hamda moliyaviy himoyani kafolatlash.

OECD (2011) “Government at a Glance” nashrida ijtimoiy xizmatlarni fuqarolar farovonligi va jamiyat barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan davlat faoliyati sifatida ta‘riflab, ularning samaradorligini baholash uchun kompleks ko‘rsatkichlar tizimini taklif etgan. Bundan tashqari, UN DESA (2018) ijtimoiy xizmatlarni inklyuziv rivojlanishning asosiy omili sifatida baholab, ularning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi o‘rnini alohida ta‘kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ijtimoiy xizmatlar tushunchasi insonga yo‘naltirilgan, kompleks mazmunda talqin qilinib, ular huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ta‘lim, tibbiy va rehabilitatsiya chora-tadbirlari majmuasi sifatida belgilanadi. Mazkur ta‘rif ijtimoiy xizmatlarning turmush sifatini yaxshilash, teng imkoniyatlarni ta‘minlash va shaxsning mustaqil hayot faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, amaldagi qonunchilik ta‘riflarida ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni to‘liq ochilmagan. Zero, zamonaviy iqtisodiy nazariyada ijtimoiy xizmatlar faqat ijtimoiy yordam instrumenti emas, balki inson kapitaliga investitsiya, mehnat unumdorligini oshirish va ijtimoiy barqarorlik orqali iqtisodiy o‘sishga ta‘sir etuvchi strategik omil sifatida qaraladi.

Mualliflik yondashuviga ko‘ra, mavjud nazariy qarashlar ijtimoiy xizmatlar mohiyatini turlicha talqin qilishini ko‘rsatadi va ushbu sohada yagona iqtisodiy-institutsional kompleks yondashuv hanz to‘liq shakllanmagan. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy xizmatlarni faqat davlat xarajatlari yoki ijtimoiy yordam sifatida emas, balki inson kapitali rivojiga xizmat qiluvchi, mehnat bozori samaradorligini oshiruvchi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi strategik sektor sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi nazariy tahlillar asosida ijtimoiy xizmatlarga quyidagi mualliflik ta‘rifini taklif etish mumkin: **ijtimoiy xizmatlar — aholining asosiy ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy tenglik va adolatni ta‘minlash hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi, asosan davlat ishtirokida yoki davlat nazorati ostida amalga oshiriladigan nomoddiy xizmatlar majmuasidir.**

Mazkur yondashuvga muvofiq, ijtimoiy xizmatlar aholining ijtimoiy ehtiyojlariga yo‘naltirilganligi, bozor mexanizmlari bilan to‘liq hal etilmasligi, davlat ishtirokini talab qilishi hamda ijtimoiy adolatni ta‘minlashi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy xizmatlarni alohida iqtisodiy kategoriya sifatida qarash zarur bo‘lib, ular jamiyat a‘zolarining turmush darajasi, salomatligi, ta‘lim olishi va mehnatga layoqatliligini ta‘minlash orqali umumiy ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy xizmatlarni turli mezonlar asosida ilmiy tasniflash (1-jadval) ularni tashkil etish, moliyalashtirish va samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, xizmat oluvchilar toifasi va moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tasnif ijtimoiy xizmatlar tizimida ijtimoiy himoya chora-tadbirlarini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadvalda keltirilgan ijtimoiy xizmatlarning tasnifi ushbu sohaning ko‘p qirrali va murakkab iqtisodiy-institutsional xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, xizmat oluvchilar toifasi bo‘yicha tasnif ijtimoiy xizmatlarni manzilli tashkil etish, aholining turli ijtimoiy guruhlariga mos xizmat paketlarini shakllantirish hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa ijtimoiy himoya chora-tadbirlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Ijtimoiy xizmatlar turi bo'yicha tasniflash mezonlari**

№	Tasniflash mezonlari	Ijtimoiy xizmatlar turlari
1	Xizmat oluvchilar toifasi bo'yicha	bolalar va yoshlar uchun xizmatlar; keksalarga xizmatlar; nogironligi bo'lgan shaxslarga xizmatlar; kam ta'minlangan oilalarga xizmatlar; ayollar va oilalarga xizmatlar
2	Ko'rsatiladigan xizmat mazmuni bo'yicha	ijtimoiy-maishiy xizmatlar; ijtimoiy-tibbiy xizmatlar; ijtimoiy-psixologik xizmatlar; ijtimoiy-pedagogik xizmatlar; huquqiy xizmatlar
3	Moliyalashtirish manbasi bo'yicha	davlat budjeti hisobidan; mahalliy budjetlar; nodavlat tashkilotlar mablag'lari; xususiy sektor mablag'lari; xalqaro grant va donorlar
4	Xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar bo'yicha	davlat muassasalari; nodavlat notijorat tashkilotlari; xususiy tashkilotlar; davlat-xususiy sheriklik asosidagi tuzilmalar
5	Ko'rsatish shakli bo'yicha	statsionar xizmatlar; yarim statsionar xizmatlar; uyda xizmat ko'rsatish; masofaviy (onlayn) xizmatlar
6	Hududiy qamrovi bo'yicha	respublika darajasida; hududiy (viloyat, tuman); mahalla darajasida
7	Davomiyligi bo'yicha	doimiy xizmatlar; vaqtinchalik xizmatlar; bir martalik xizmatlar
8	Iqtisodiy tabiati bo'yicha	bepul xizmatlar; qisman to'lovli xizmatlar; to'liq to'lovli ijtimoiy xizmatlar

*Manba:* muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ko'rsatiladigan xizmatlar mazmuni bo'yicha tasnif ijtimoiy xizmatlarning funksional yo'nalishlarini aniqlash, ularning sog'liqni saqlash, ta'lim, psixologik qo'llab-quvvatlash va huquqiy yordam kabi sohalardagi o'zaro bog'liqligini ochib beradi. Bunday yondashuv ijtimoiy xizmatlarni kompleks tarzda rejalashtirish va integratsiyalashgan xizmat ko'rsatish modellarini joriy etish uchun ilmiy asos yaratadi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tasnif esa ijtimoiy xizmatlar sohasida davlat budjeti bilan bir qatorda mahalliy budjetlar, nodavlat tashkilotlar, xususiy sektor va xalqaro donorlar ishtirokining ahamiyatini ko'rsatadi. Bu holat ijtimoiy xizmatlar tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, resurslar diversifikatsiyasini kengaytirish va davlat moliyaviy yukini qisqartirish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar va xizmat ko'rsatish shakllari bo'yicha tasnif ijtimoiy xizmatlar bozorida davlat, nodavlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini, xususan davlat-xususiy sheriklik asosida xizmat ko'rsatish modellarini rivojlantirish zaruratini asoslaydi. Ayniqsa, masofaviy (onlayn) xizmatlar tasnifga kiritilishi raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy xizmatlar qamrovini kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Jadval asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatlarni turli mezonlar asosida ilmiy tasniflash ularni tashkil etish, moliyalashtirish va samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, xizmat oluvchilar toifasi va moliyalashtirish manbalari bo'yicha tasnif ijtimoiy xizmatlar tizimida manzillilikni kuchaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy himoya chora-tadbirlarini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.**

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatlar tushunchasi iqtisodiyot va sotsiologiya fanlarining tadqiqot ob'ekti hisoblanib, turli ilmiy maktablar va nazariy yondashuvlar doirasida turlicha talqin qilingan hamda hozirga qadar uning ilmiy ta'rifiga nisbatan yagona, umumqabul qilingan yondashuv to'liq shakllanmagan. Ayrim nazariyalarda ijtimoiy xizmatlar davlatning ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirish vositasi

sifatida qaralgan bo'lsa, boshqa yondashuvlarda ularning bozor mexanizmlari orqali to'liq ta'minlanmasligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Inson kapitali nazariyasi esa ijtimoiy xizmatlarni uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi investitsion yo'nalish sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv tadqiqot davomida ilmiy jihatdan asoslanib, muallif pozitsiyasi bilan uyg'un ekanligi tasdiqlandi.

Tahlil natijalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ijtimoiy xizmatlar tushunchasi, asosan, insoniy ehtiyojlarga yo'naltirilgan, kompleks va ijtimoiy himoya tizimi bilan uzviy bog'liq holda belgilanganini ko'rsatadi. Biroq amaldagi normativ-huquqiy ta'riflarda ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni, xususan, ularning inson kapitaliga ta'siri, mehnat unumdorligini oshirishdagi roli va iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hisssasi yetarli darajada ochib berilmagan. Bu holat ijtimoiy xizmatlar tizimini boshqarish va moliyalashtirishda samaradorlikni oshirishga muayyan to'siqlar keltirib chiqarishi mumkin.

Xorijiy va milliy olimlar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, davlatning ijtimoiy xizmatlar sohasidagi kafolatlovchi roli saqlangan holda, xizmatlarni ko'rsatish va moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Ijtimoiy xizmatlar tushunchasini normativ-huquqiy hujjatlarda iqtisodiy kategoriya sifatida kengaytirilgan tarzda qayta ishlab chiqish, unda inson kapitaliga investitsiya, mehnat bozori samaradorligi va iqtisodiy o'sish bilan bog'liq jihatlarni aniq belgilash maqsadga muvofiq.

2. Ijtimoiy xizmatlar tizimini takomillashtirishda "davlat kafolati – raqobatli provayderlar – sheriklik asosida moliyalashtirish" tamoyiliga asoslangan institutsional modelni joriy etish, bunda davlat-xususiy sheriklik, ijtimoiy sug'urta va nodavlat jamg'armalar imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur.

3. Ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda manzilliylik va standartlashuvni saqlagan holda, xizmatlar sifati va natijadorligini baholash uchun zamonaviy indikatorlar tizimini ishlab chiqish hamda data-driven monitoring mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

4. Ijtimoiy xizmatlar sohasida nodavlat sektor, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalliy jamoalar ishtirokini kengaytirish orqali xizmatlarning moslashuvchanligini va aholi ehtiyojlariga javob berish darajasini oshirish lozim.

5. Ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy himoya tizimlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish, ularni yagona institutsional va iqtisodiy mexanizm doirasida muvofiqlashtirish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan kompleks yondashuvni amalga oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy xizmatlarni iqtisodiy kategoriya sifatida ilmiy asoslash va ularning inson kapitaliga investitsiya sifatidagi rolini kuchaytirish O'zbekiston sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Taklif etilgan yondashuvlar ijtimoiy xizmatlar tizimini takomillashtirish bo'yicha kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy islohotlar uchun mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar /Literatura/References:**

*Abduraxmanov, Sh.Z. (2020) Ijtimoiy xizmatlar iqtisodiyoti. –Toshkent: Iqtisod-Moliya.*

*Becker, G. S. Human Capital. — Chicago: University of Chicago Press, 1964.*

*Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (2022 yil 28 yanvar) "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-sonli.*

*Keyns J. M. Obçaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. Izbrannoe. –M.: Eksmo, 2007. - 960 s. ISBN 978-5-699-20989-7. 5.*

*Makkonnell K.R., Bryu S.L., Flinn Sh.M. (2017) Ekonomiks: prinsipy, problemy i politika. Uchebnik, - 19-ye izd., angl. –M.: NIS INFRA-M.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2025 yil 12 dekabrda).

OECD. (2011) *Government at a Glance*. — Paris, URL: <https://www.oecd.org/gov/government-at-a-glance>.

Prokofeva, T.Yu. (2014) *Sotsialnye rynochnye uslugi v ekonomike*. —M.: Infra-M.

Putilo, N.V. (2018) *Sotsialnye uslugi kak ob'ekt publichnogo upravleniya // Jurnal rossiyskogo prava*.

Qaror (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (10 oktabr 2023 yil) "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-319 sonli.

Qaror (2025) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (27 fevral 2025 yil) "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-78 sonli.

Rasulev, S.K. (2019) *Inson kapitali va ijtimoiy xizmatlar*. —Toshkent.

Raximov, M.X. (2021) *Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nazariyasi*. — Samarqand.

Sen, A. (1999) *Development as Freedom*. — Oxford: Oxford University Press.

Smit A. (2016) *Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov*. —M.: Eksmo, 4.

Solixova, A.M. (2020) *Ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy siyosat*. —Toshkent.

UN DESA. (2018) *Promoting Inclusion through Social Protection*. — New York, URL: <https://www.un.org/development/desa/publications>.

World Bank (2001) (Holzmann, R., Jørgensen, S.) *Social Risk Management: A New Conceptual Framework for Social Protection*. URL: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail>.

World Health Organization. (2000) *Health Systems: Improving Performance*. —Geneva. URL: <https://www.who.int/publications/i/item/924156198X>.

Xalikov, Y.M. (2022) *Ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari*. —Toshkent.

Xashimov P.Z. (2002) *Ekonomika sotsialnoy sferi*. —T.: «Universitet», — S. 26.

Yakobson, L.I. (2009) *Ekonomika obshchestvennogo sektora*. —M.: GU VShE.

Yasin, Ye.G. (2011) *Modernizatsiya ekonomiki i sotsialnoe razvitie*. —M.: GU VShE.

Zaslavskaya, T.I. (2002) *Sotsialnaya transformatsiya rossiyskogo obshchestva*. —M.: Delo.